



TOSHPO'LAT AHMADNING "SIRLI CHASHMA" DOSTONI VA UNING BADIYATI

Nizomova Kamola Vohid qizi

Buxoro davlat universiteti 3-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8026079>

ARTICLE INFO

Received: 04th June 2023

Accepted: 11th June 2023

Online: 12th June 2023

KEY WORDS

"Sirli chashma" dostoni, ertak-doston, syujet, kompozitsiya, obraz, qahramon, doston qismlari, undalmalar, tashbeh, irsoli masal, takrir, intoq, kitobat san'ati, murakkab tuzilishli qofiya va radiqlar, inson va tabiat konsepsiyasi, badiiy tasvir vositalari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Toshpo'lat Ahmadning "Sirli chashma" dostoni tahlil qilingan. Doston badiiyati ustida fikr yuritilgan.

O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov iste'dodli shoir, sinchkov jurnalist va mohir tarjimon Toshpo'lat Ahmad haqida iftixorga to'lib, shunday degan edi: "Toshpo'lat Ahmad iste'dodli, hassos shoir, zahmatkash adib". (3. 296-bet). Darhaqiqat, Toshpo'lat Ahmad zahmatkash, ijodda tinmay harakat qiladigan, insoniy so'z, jo'shqin satrlar egasi. U ilohiy taqdim etilgan ilhom vositasida juda ko'p she'rlar, dostonlar, balladalar, qasida, turkumlar yozdi. Barchasida shoir "sirli so'z"ning sehru jozibasini anglashga, teran his va idrok etishga urindi. Ana shu harakatlar davomiyligida "Sirli chashma" dostoni ham vujudga keldi.

Asar dostonidan ko'ra ertakka yaqin. Shu ma'noda uni ertak-doston deb husoblash mumkin. Ertak-doston nima? Nomidan ham ko'rinib turiptiki, "ertak-doston o'zida ham ertakning, ham dostonlarning xususiyatlarini mujassam etadi. U mazmunan ertakka, shaklan esa dosotonga yaqin turadi. Ya'ni voqealar xuddi ertakdagi kabi boshlanma, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ammo bu voqealar nasriy usulda emas, balki she'riy usulda bayon etiladi"(6). "Sirli chashma" dostonida ham umumiy bir syujet ostida birlashgan kompozitsiyani ko'rishimiz mumkin. Voqealarga biroz xayoliy tus berilgan bo'lsa-da, u bilan shoir aniq bir haqiqatni o'quvchisiga yetkazmoqchi bo'ladi. Asar 15 qismdan iborat. Har bir qismlar turli hajmda bo'lib, shoir ularni mazmunga moslashtirgan. Ya'ni birinchi qism 2 baytni, 2-qism 5 baytni, 3-qism 9 baytni, 4-qism 6 baytni, 5-qism 17 baytni tashkil qiladi va shunday davom etadi. Dostonning umumiy hajmi 171 bayt. Dostonda ijodkor inson va tabiat



konsepsiyalari haqida poetik mushohada yuritadi. Adabiy asarning asosini tashkil etuvchi voqealar turkumi ham ana shu mushohadalar ustiga qurilgan.

Asar ijodkorga xos badiyat bilan boshlanadi: “Qanotlanib ko’nglim bugun ko’klarga parvoz etdi”. Shoir ko’nglini qushday parvoz etdi, qanotlandi deya badiiy tus beryapti, tashbeh mubolog’a yaratyapti.

Birinchi va ikkinchi qismlarda voqeaga kirish va obrazlar haqida ma’lumot keltirilgan. Asar qahramonlari: Ali degan xokisor, faqir chol, xotini Sevar xola va ularning farzandi Javlon. Javlon haqida asarning 5-qismida gapiriladi. Ular Sarmishtog’ etagida qo’nim topib, tog’- u toshdan yig’gan o’tinlarini sotib, ro’zg’or tebratishardi. Sevar xola janda uvada tikardi. “Janda” so’zi hozirgi o’zbek adabiy tili uchun tushunarsiz. “U eski, yirtiq, uloq-quroq, juldur kiyim degan ma’noni anglatadi” (5.V jild 71-bet).

Dostonnig uchinchi qismida “tulporga do’nib toylar” misrasi keltiriladi. Bunda do’nib izohtalab so’z, “u aylanmoq, o’xshamoq degan ma’nolarni bildiradi” (5. III jild 675-bet). Bunda shoir toylar tulporga aylandi demoqchi. Ijodkor bir necha o’rinlarda so’zlarning eskirgan shakllarini mum-asal kabi qo’llaydi. Asarda eskirgan, tarixiy so’zlarni qo’llash orqali shoir o’z mahoratini namoyon qilgan.

Asar badiyati turli zid ma’noli so’zlar orqali vujudga kelgan tazodlarga ham boy. 3-qismda sog’ va xasta, 8-qismda tog’ va samo, falak va zamin, 11-qismda qiyin va oson, kekxa va yosh, 12-qismda oy bilan quyosh, 13-qismda yer-u ko’k va boshqalar bu badiiy san’at yaratilishiga xizmat qilgan.

Dostonning beshinchi qismida Javlonning ta’rifi keltirilgan. U tanbal, ishi to’palon, bezori sifatida ta’riflanadi:

Kelib tog’ning qoshiga,
Ul giyohni yulardi.
Maysalarni boshiga
Xazon kunin solardi.

Aynan yuqoridagi baytda ham shoir xazon bilan maysani ziddiyatga qoygan. Bu holatda biz kontekstda tazod badiiy san’ati qo’llangan deyishimiz mumkin. Javlonning bu qilmishlaridan tabiat ozor chekadi. Jumladan, ko’k chashma ham undan qahri keladi va uni jazolaydi:

Shunda debdilar qushlar:
-Chashma uni jazola!
Dilchok bulbul, oqqushlar,
Depti:uni jazola!...

Yuqorida shoir intoq san’atini vujudga keltirgan. Intoq bu so’zlatish, gapirtirish, nutqlantirish degan ma’nolarni ifodalaydi, ya’ni baytda shoir qushlarni, bulbullarni, oqqushlarni tirik inson kabi so’zlatadi. Ayni paytda qush nomlari orqali tanosub badiiy san’ati ham vujudga kelgan. Bu ijodkorning qay darajada so’zga ustaligini bildiriadi.

Voqealar rivoji Javlon ayiqqa aylanib qoladi, ota-onasi uni qidirib sarson bo’lishadi, rozg’orda qiynalib qolishadi. Bu haqida ertak- dostonning 6-qismida so’z boradi:

Ali sho’rlikning oxir
Yurishmapti omadi.
Ko’zlari tottrib xira



Dol bo'lipti qomati.

"Dol" arab alifbosidagi harf, u qiya, egik holatda yoziladi. Ko'p shoirlar, xususan, mumtoz adabiyotda dol harfi orqali personaj qomatini ifodalashadi. Toshpo'lat Ahmad ham cholning qomati farzandi dog'ida "dol" kabi egilib qoldi deydi va bu orqali u kitobat badiiy san'atini vujudga keltirgan. Bundan tashqari u chol ruhiy va jismoniy holatini ko'rsatar ekan, "Yurarkan Ali bobo, borarkan Ali bobo" birikmalari orqali murakkab tuzulishli qofiya va radiflarni keltiradi.

Yozning bir kunida chanqab, horigan chol tosh ostidan jildirab oqayotgan chashmani ko'radi va uning yon atroflarini tozalab yo'l ochadi:

O'tirib so'ngra sekin,
"Bismillahir rahim" deb.
Ichibdi uch hovuch suv,
Shukur senga, egam, deb...

"Bismillahir rohmanir rohim"ning qudrati hammaga ma'lum. "Daylamiy roziyallohu anhu ibn Mas'ud raziyallohu anhudan rivoyat qiladilar. Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: "Kimki "bismillahir rohmanir rohim"ni o'qisa Alloh taolo uning har bir harfi uchun qirq ming hasanot yozadi, qirq ming yomonligini o'chiradi, u uchun qirq ming darajot ato etadi"(7). Musulmonlarga dil va til yaqinligi uchun Alloh shunday darajalarni, mukofotlarni ato etadi. Toshpo'lat Ahmad ham bir musulmon sifatida o'z o'quvchisini bu mukofotlarga ega bolishga, to'g'ri yo'lga, tilini Alloh kalomi bilan band etishga chorlaydi.

Asarda dostonlar uchun bir an'anaga kirgan uyqu motivi besh o'rinda qo'llangan. Birinchisi, Javloning chashmadan suv ichib uyquga ketishi, ikkinchisi Ali cholning suv ichib uyquga ketishi va quvvatga kirishi, uchinchisi Sevar xolaning chashma oldida uyquga ketib chaqaloqqa aylanishi va keyingilari Sevar xola va Javloning suv ichib, uyqudan so'ng o'z asl hollariga qaytishlaridir. Bu o'rinlarning barchasida uyqu motivi orqali ijodkor qahramonlarni bir holatda boshqa holatga o'tkazadi. Voqealar oxirida chol tabiatni va atrof-muhitni obod qilgani tufayli xotini va farzandi yoniga qaytadi.

Dostonda undalmalardan keng foydalanilgan: "yosh do'stlarim" (1-qismda), "farzandim" (3-qismda), "hey,bola" (5-qismda), "so'zla, tabiat-ona" (8-qismda), "xudoyim" (9-qismda), "Javlonim", "bolam", "o'g'lim", "jon onam", "aziz otam", "chashmajon" (14-qismda), "yosh do'stginam" (15-qismda) va boshqalar. Ularning barchasi epik asar badiiyligini oshirgan.

Muallif o'ziga xos mubolag'adan ham foydalangan. Ya'ni Sevar xolaning chashma suvidan ichib chaqaloqqa aylanish holati xalq og'zaki ijodidagi evrilish motivini yodga tushiradi. Buni aqlga sig'dirish qiyin va bu mubolag'aga misol bo'la oladi:

Ne ko'z bilan ko'rsin ul,
Yotar yerda chaqaloq.

Bundan tashqari doston voqealarida tongni kumushga, chashmani zilolga, qalbni mumga, yurakni qonga, mehrni chashma tushishiga, bag'rni bahorga, ko'zni yulduzga, qoshi qaro kunduzga, bolani cho'g'-lolaga, tabiatni onaga o'xshatish holatlari orqali betakror tashbehlar yaratilgan. Takrorlardan ham unumli foydalanilgan:

Chug'urlashdi qaldirg'ochlar,
Tingladim man, tingladim man.
Shivirladi qaldirg'ochlar,



Ma'nosini angladim man.

"qaldirgochlar", "tingladim man" so'zlarini takrorlash orqali shoir takrir badiiy san'atini yaratgan. Dostonda shunday o'rinlarni uchratamiz-ki, ijodkor g'oya yetkazib berish yetukligiga erishish uchun xalq og'zaki ijodi namunalariga yuzlangan:

Oxirini kut, illo,

Sabr tubi-oltin, zar

misrada "Sabr tagi-oltin" maqoli keltirilgan. Bu irsoli masal badiiy san'atiga misol bo'la oladi. Toshpo'lat Ahmad ana shunday fol'klor namunalari, diniy iboralar, til vositalarini o'z asarlarida mohirlik bilan qo'llay olgan ijodkordir.

Ertak-doston syujeti reallikdan biroz yiroq, shu bilan birga unda konfliktning noo'rin qo'llanish holatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti o'rnida, Sevar xolaning Ali cholga achchiq ustida aytgan gaplari tufayli chashma uni chaqaloqqa aylantirib qo'yishi yoki shoir tomonidan "bamisoli yalmog'iz" deya ta'rif etilishini aytishimiz mumkin. Holbuki, bundan oldin Sevar xola butun hayoti davomida boriga qanoat qilib, boshiga nima kelsa sabr qilgan inson edi. Uni darhol salbiy obrazga aylantirish g'alizlikni keltirib chiqargan. Bu o'quvchining asarga nisbatan ishonchsizligini, biroz negativligini oshiradi. Voqealar rivojida asar go'zal xotima bilan tugaydi. Toshpo'lat Ahmad dostonning o'n beshinchi qismida o'zi ham ko'klam chog'ida Sarmishtog'ga borganligini, 14 kunlik oy bilan suhbat qurganligini, chashmadan qonib-qonib ichganligini, bog'larini kezib, rohatlanganligini aytib o'tadi. Xulosa sifatida quyidagi baytni keltiradi:

Tabiatni kim xor etsa,

Uning o'zi xor bo'lgaydir.

Kimki uni yoshartirsa,

Yoshlik unga yor bo'lgaydir...

Dostondan kelib chiqadigan g'oya, xulosa shuki, insonning har bir yaxshiligi behuda ketmaydi, ayniqsa, tabiatga, atrof-muhitga qilgan yaxshiligi. Tabiat bilan inson yonma-yon yashar ekan, unga doim foyda keltirishni istaydi, ayni paytda, biz insonlarning ham tabiatga nafimiz tegishi kerak. Asarda birgina "Sirli chashma" orqali ana shu g'oya ilgari surilgan. Kelajak avlodni tabiatni asrab-avaylashga, insoniy sifatlar ila umrguzaronlik qilishga chorlangan. Taniqli adabiyotshunos N.Rahimjonov:"Shoir Toshpo'lat Ahmad she'rlari yurtga, vatanga bo'lgan farzandlik mehr-muhabbati samimiy, dilga yaqin kechinmalari bilan e'tiborlidir. His-tuyg'ulari xalqimiz o'tmishiga ehtirom bilan, kelajagiga mas'ullik bilan ajralib turadi. Zamondoshlarimizning farzandlik burchi namoyon etayotgan muhim omillardan biri sifatida ko'zga tashlanadi"(4.233-bet) deydi. Bu e'tirofga shoir ijodiga berilgan ehtirom sifatida qarajak bo'ladi. Doston markazida turgan inson- "o'z makoni va zamonida javlon urayotgan, aql-zakovati va mehnati bilan manaviy va moddiy boyliklar bunyod etayotgan, erki, ozodligi, mustaqilligi uchun kurashayotgan va bu kurashda g'oliblik nash'asini surayotgan insonni sharif"(2.9-bet). Har birimiz uning yo'lida bo'lishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, dostonda shoir mahorati, salohiyati o'laroq turli badiiy tasvir vositalaridan, badiiy san'atlardan keng foydalangan. G'oyani ifodalashga soddalikka, ravonlikka e'tibor qilingan. O'ziga xos bayonchilik usuli orqali go'zal asar yaratilgan. Toshpo'lat Ahmad "Sirli chashma" dostoni orqali o'zbek epik poeziyasiga katta hissa qo'shdi.



References:

1. Toshpo'lat Ahmad Sajdagoh dostonlar.T.:Muharrir, 2011.
2. Toshpo'lat Ahmad Umrin gulobi.T.:Navro'z , 2013.
3. Oxunjon Safarov Buxoro adabiy harakatchiligi tarixining ayrim manzaralari. Buxoro , 2012.
4. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati.T.:”Fan “, 2007.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati III,Vjild . T.:O'zbekiston ilmiy ensiklopediyasi 2006-2008.
6. Uz.m.wikipedia.org.
7. Sammuslim.uz. Mansurjon Abduxoliqov Bismillahir rohmanir rohimning fazilati.09.08.2019.